



HUQUQIY ODAT VA UNING AHAMIYATI

A'zamov Adhamjon Axrorjon o'g'li

Qo'qon davlat pedagogika institute Tarix fakulteti milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Huquqiy odatning asrlar davomida shakllanib kelishi, ularning xususiyatlari va hozirgi kundagi ahamiyati*

Kalit so'zlar: *Odat, huquqiy odat, odatning mutlaq hukmronligi, odat va huquqning birgalikdagi hukmronligi, huquqning mutlaq hukmronligi,*

Ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, huquqiy odat davlatchilik shakllanishining ibtidosida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalarning tarixan birinchi ko'rinishi bo'lgan. Odat normalari asosan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solgan. Odat - doimiy takrorlanib turuvchi xulq-atvor qoidalaridir. Bu xulq-atvor qoidalari kishining ongida shakllanadi. Biz birinchi navbatda odat va huquqni farqlab olishimiz kerak chunki kundalik hayotimizdagi barcha takrorlanuvchi hodisa va voqealar ham huquqiy odat hisoblanmaydi.

Qadim zamonlarda ya'ni ibtidoiy davrda ijtimoiy munosabatlarni odat normalari tartibga solgan bo'lsa asrlar o'tishi mobaynida u o'z o'rnini huquqqa bo'shatib berdi. Bu juda tez sodir bo'ldi deyolmaymiz chunki bu jarayon uch bosqichga bo'lindi.

Birinchi bosqichda odat mutlaq hukmronligi, bu davrda yuqorida ta'kidlaganimizdek odat ijtimoiy munosabatlarni mutlaq o'zi tartibga solgan negaki bu davrda huquq bo'lmagan huquq bo'lmasligining sababi esa davlat ham hali vujudga kelmagan

Ikkinchi bosqichda odat va huquqning birgalikdagi davri, bu davrda asta sekin davlat ham vujudga kelib u bilan birgalikda davlatning qonunlari ham asta sekin jamiyat hayotiga odat sifatida yo'naltira boshladi

Uchinchi bosqichda huquqning mutlaq hukmronligi, bu davrda odat o'z o'rnini huquqqa bo'shatib berdi. Huquq hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan va amalda mavjud

Har qanday odat ham huquqiy odatga aylana olmaydi, balki u ma'lum bir guruh, sinf yoki butun jamiyatning manfaatlariga mos kelgan taqdirdagina, ijtimoiy foydali va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan holdagina huquqiy odat bo'lishi mumkin

Odat o'tmish bilan bugungi kunni bog'lab turadi. Jamiyatda shunday odatlar borki, davlat ularni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi. Masalan, ommaviy hashar tadbirlari, Navro'z bayrami va boshqalar. Odat insonlar o'rtasida bir xil holatning ketma-ket takrorlanishi natijasida shakllanadi. Masalan Navro'z bayramini 2010 yil 23 fevralda Afg'oniston, Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Iroq, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiyaning



tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 21 martni "Xalqaro Navro'z kuni" deb e'tirof etish haqida qaror qabul qilgan.

Huquqiy odat – uzoq davr mobaynida amalda bo'lishi natijasida shakllangan va davlat tomonidan umummajburiy qoida sifatida tan olingan yurish-turish qoidasidir.

Huquqiy odat quyidagi xususiyatlarga ega: birinchidan, mahalliy ahamiyatga molik, chunki huquqiy odat uncha ko'p bo'lmagan bir guruh odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soladi, ya'ni ma'lum bir urug' yoki qabila irodasini o'zida ifoda etadi; ikkinchidan, huquqiy odat, qisman din bilan bog'liq bo'lib, ko'pgina munosabatlarni tartibga solishda dinga asoslanadi va tayanadi.

Xulosa o'rnida aytganda huquqiy odat hozirgi kunda yoshlarimiz o'rtasida nafaqat yoshlarimiz balki hammamizga mehirdorlik bo'lishadi o'rtaga tushgan nizolarni bartaraf etishga undaydi bu huquqiy odat yana misol qilib qo'shimcha tarzda Qurbon hayiti va Ro'za hayiti ham misol bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Odilqoriyev X.T "Davlat va huquq asoslari" Toshkent "Adolat" 2017
.http://pravacheloveka.uz/oz/articles/navrz-ananalar-va-tarih